


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI



03.00.05 – BOTANIKA IXTISOSLIGI BO‘YICHA TAYANCH  
DOKTORANTURAGA KIRISH SINOVLARI UCHUN MUTAXASSISLIK  
FANLARIDAN

**DASTUR VA BAHOLASH MEZONI**

Samarqand – 2024

### **Annotatsiya:**

Dastur 03.00.05 – Botanika ixtisosligiga kiruvchilar uchun 70510101 – O’simliklar introduksiyasi, 70510101 – Dendrologiya, 70510100 – Lixenalogiya va briologiya, 70510101 – Dorivor o’simliklar, 70510101 – Fitotsenalogiya 5A140101 – O’zbekistonning manzaralari o’simliklari, 5A140101 – O’simliklar geografiyasi, A140101 – Bioxilmaxillik va uning muhofazasi, 5A140101 – Poliobtanika, 5A320500 – Mahalliy o’simliklar, 70510101 – Geobotanika mutaxassisliklarining 2021-yilda hamda 2023-yilda tasdiqlangan o‘quv rejasidagi asosiy fanlar asosida tuzildi.

### **Tuzuvchilar:**

<b>Jalov X.H.</b>	–	SamDU, Botanika kafedrasi mudiri, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
<b>Haydarov X.Q</b>	–	SamDU, Botanika kafedrasi professori, biologiya fanlari doktori
<b>Nomozova Z.B.</b>	–	SamDU, Botanika kafedrasi dotsenti, biologiya fanlari nomzodi

Dastur Biokimyo institutining 2024-yil 3-oktabrdagi 2-sonli Kengash yig‘ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

## KIRISH

03.00.05 – Botanika ixtisosligi bo‘yicha mazkur imtihon dasturi botanika fanlarining quyidagi asosiy bo‘limlarini o‘z ichiga oladi: 70510101 – O‘simliklar introduksiyasi, 70510101 – Dendrologiya, 70510100 – Lixenalogiya va briologiya, 70510101 – Dorivor o‘simliklar, 70510101 – Fitotsenalogiya 5A140101 – O‘zbekistonning manzaralni o‘simliklari, 5A140101 – O‘simliklar geografiyasi, A140101 – Bioxilmaxillik va uning muxofazasi, 5A140101 – Paliobotanika, 5A320500 – Mahalliy o‘simliklar.

O‘quv materialini o‘zlashtirish davomida tadqiqotchi botanika fanining yuqorida keltirib o‘tilgan fanlar sohalari bo‘yicha fundamental bilimlarga ega bo‘lishi bilan bir paytda matematik modellashtirish, matematik statistika, oddiy differensial tenglamalar, matematik fizika tenglamalari, variatsion qatorlar kabi fanlardan ham keng tushunchasi bo‘lishi talab etiladi.

Tadqiqotchining bilim darajasi talablari: umumbiologik qonuniyatlar, o‘simliklarning rivojlanish evolyusiyasi, botanika fani rivojlanish tarixi, botanikaning fundamental tadqiqot usullari, zamonaviy sistematika, florogenetika, o‘simliklarni muhofaza qilish sohalari bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘lishi lozim.

- 70510101 – O‘simliklar introduksiyasi
- 70510101 – Dendrologiya
- 70510100 – Lexinalogiya va briologiya
- 70510101 – Dorivor o‘simliklar
- 70510101 – Fitotsenalogiya
- 5A140101 – O‘zbekistonning manzaralni o‘simliklari
- 5A140101 – O‘simliklar geografiyasi
- A140101 – Bioxilma xillik va uning muxofazasi
- 70510101 – Geobotanika

5A320500 – Maxalliy o‘simliklar magistratura mutaxassisliklari o‘quv rejasiga asosan 10 ta ixtisoslik fanlari bo‘yicha fanlaridan savollar bazasi shakllantirilgan.

Bu fanlar o‘z negizida qamrab olingan ma’lumotlar quyida batafsil keltirilgan.

### **O‘simliklar introduksiyasi fani bo‘yicha:**

O‘simliklarni introduksiya qilishning maqsadi va vazifalari. O‘simliklar introduksiyasining asosiy nazariyalari. F.N.Rusanovning introduksion metodi – florogenetik kompleksi metodi, geobotanik edifikator metodi, “turkum kompleksi” metodi. N.I.Vavilov bo‘yicha madaniy o‘simliklarning paydo bo‘lish markazlari. Yer yuzining floristik oblastlari. Xorij davlatlarning tabiiy florasidan introduksiya ob’ektlarini aniqlashning yo‘llari. Botanika bog‘larida kolleksiya va ekspozitsiyalar tashkil etish tamoyillari. Urug‘larni yig‘ish va almashlash, jonli o‘simliklarni jalb etish. Birlamchi introduksiya va reintroduksiya tushunchalari. Introduksion populyasiya. O‘simliklar introduksiyasida tur ichidagi o‘zgarishlar. Introdutsientlarni yangi sharoitda o‘rganishning yo‘llari va metodlari: a) O‘simliklarni ekologiyasini o‘rganish metodlari. b) O‘simliklarning o‘sish va

rivojlanish ritmini o‘rganish. Introduksiya yutuqlarini baholash. Introduksiya yutuqlarini baholash shkalasini tuzish tamoyillarini aniqlash va manzarali hamda xo‘jalik jihatdan muhim sifatlarini baholash. Kultigen arealning tarixiy ekologik-geografik va morfogenetik qonuniyatlarining shakllanishi. Bioxilma - xillikni saqlashda botanika bog‘larining roli.

### **Dendrologiya fani bo‘yicha:**

Dendrologiya fani – daraxt-butalarning sistematikasi, hayotiy shakllari, morfologiyasi, biologiyasi, yashash muddati, ko‘payishi, muhit bilan munosabatlari va evolyusion taraqqiyotini o‘rganish. Fanning vazifalari – daraxt-butalarni aniqlash, ularning botanik tavsifi, tarqalishi, tarkibi va qo‘llanilishini **amalda qo‘llay olishni** morfobiologik va fenologik kuzatuv usullarini, tabiiy o‘simlik resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish prinsiplarini amalda qo‘llay olishni o‘rgatishdan iborat.

### **Lexinalogiya va briologiya fani bo‘yicha:**

Lexinalogiya va briologiya fani yurtimizdagi bioxilma-xillik muammolarini o‘rgatishdan iborat. Lixenologiya va briologiya biologiyaning eng muhim va asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ilm-fanning ushbu sohalaridagi zamonaviy hamda muhim masalalarini hal etishda keng o‘rin tutadi. Lixenologiya va briologiya fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida Lishayniklar florası haqida Lishaynik va yo‘slnlarni ustida olib borilgan tadqiqotlar. Lishaynik va yo‘slnlarni doir yaratilgan asarlar. Aleksandr Gumboldning “Lixenologiya va briologiyaga doir g‘oyalar” asari. Areal haqida tushuncha. Areal xillari: kosmopolit areal, lentasimon areal, endem areal. Flora haqida tushinchcha, flora elementlari guruxlari: Arktik flora elementlari, Shimoliy (yoki boreal) flora elementi, O‘rta evropa flora elementi, Atlantik flora elementi, Pontik flora elementi, O‘rta er dengizi flora element, Markaziy Osiyo flora elementi Turon flora elementi, Manjuriya flora elementi, Yer sharining floristik olamlari bo‘yicha olimlarning fikrlarini o‘rganishdan iborat.

### **Dorivor o‘simliklar fani bo‘yicha:**

Dorivor o‘simliklar fani o‘simliklar xom ashylarini etishtirish texnolagiyasi va agrotexnik chora tadbirlarning nazariy va amaliy asoslarini o‘rgatish hamda ularni amaliyotga qo‘llashning malakaviy ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha yo‘nalish profiliga mos bilim, ko‘nikma va malakan mukammal o‘rgatishdan iborat. Dorivor o‘simliklar dehqonchik tarixi Dorivor o‘simliklar xom ashylarini etishtirish texnolagiyasi va agrotexnik chora tadbirlarning nazariy va amaliy asoslarini o‘rgatish. Dorivor o‘simlik turlarini ko‘paytirish usullarini, dorivor o‘simlik turlarini etishtirishda agrotexnik chora tadbirlarini, o‘simlik xom ashylarini yig‘ish mavsumlari va quritish usullari turli iqlim sharoitlarida dorivor o‘simliklarni etishtirish va ko‘paytirish usullarini o‘rgatish, dorivor o‘simliklarning agrotexnikasini ishlab chiqish, xom ashyni tayyorlash. Dorivor o‘simlik turlariga bioekologik xususiyatlarini in’obatga olgan holda belgilangan agrotexnik chora tadbirlarni o‘simlik xom ashylarini yig‘ish mavsumlari va quritish usullarini o‘rganishdan iborat.

### **Fitotsenalogiya fani bo‘yicha:**

Fitotsenalogiya fanni o‘simlik jamoalari, ularning gorizontal va vertikal strukturasi, ularning tashqi muhit sharoitlariga moslashish qonuniyatları, er yuzida tarqalishi, o‘simlik jamoalarining shakllanishi, fitosenozdagi jarayonlar va boshqa biologik va fitosenotik xususiyatlari bo‘yicha yo‘nalish profiliga mos bilim, ko‘nikma va malakanı mukammal o‘rgatishdan iborat.Fanning vazifasi – introduksiya qilinadigan o‘simliklarni aniqlay olish usullarini, zamonaviy tadqiqot usullarini, morfobiologik va fenologik kuzatuv usullarini, tabiiy o‘simlik resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish prinsiplarini amalda qo‘llay olishni o‘rgatishdan iborat.

### **O‘simliklar geografiyasi fani bo‘yicha:**

O‘simliklar geografiyasi fani o‘simliklar areallari xaritalash haqida tushunchalar, areallarning tiplari, shakli va o‘lchamlari. Turlar va ulardan yuqori taksonlar areallari; areal dinamikasi, kelib chiqishi va tarqalish markazlari. Taksonlar tarixi va ularning kelib chiqishida arealning ahamiyati. Asosiy ekologik omillar: abiotik (yorug‘lik, issiqlik, suv, tuproq), biotik (o‘simliklar, hayvonlar va b. tirik organizmlarning o‘zaro ta’siri) va antropogen omillar. O‘simliklarning tarqalishi va ekologik sharoitlar. Gigrofit, mezofit, kserofit, galofit o‘simliklarning morfo-anatomik xususiyatlari. O‘simliklarning hayotiy shakllari va ularning klassifikatsiyasi. Raunkier va Serebryakov bo‘yicha. Populyasiyalar ekologiyasi. Ekotizimlar va ularning xilma xilligi. Flora, ayrim floralarning chegaralanish tamoyillari, sistematik tarkibi, qiyosiy o‘rganish. Floralarning geografik va genetik elementlari. Avtoxton va alloxton organizmlar. Reliktlar va ularning tiplari. Endemlar. Fitotsenoz va biogeotsenoz haqida tushuncha. Fitotsenoz tuzilishi haqida asosiy ma’lumotlar: tarkibi, yarusligi, sinuziyalar, o‘simliklarning o‘zaro va b. o‘sish sharoitlari bilan ta’siri. Fitotsenoz va o‘simlik qoplami haqida asosiy tushunchalar. O‘simliklarning tik mintaqalar bo‘yicha tarqalishi va ulardagi asosiy tiplar. Floristik rayonlash birlklari (floristik dunyo, viloyatlar, kichik viloyatlar, provinsiyalar) ularni ajratish prinsiplari va asoslari. Hozirgi zamon floristik dunyosi. Yer sharining asosiy floristik viloyatlari (tavsifi, ularning kelib chiqishi, rivojlanishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar). Botanik resursshunoslikning asosiy vazifalari va metodlari. Foydali o‘simliklar resurslari to‘g‘risida tushuncha. Xomashyo zahiralarini o‘rganishda qo‘llaniladigan asosiy metodlar va ularning mohiyati. Tabiat muhofazasi va o‘simlik boyliklaridan oqilona foydalanish bo‘yicha asosiy me’yoriy materiallar va xujjalalar. Tabiat muhofazasiga oid global va hududiy muammolar. O‘simliklar genofondini saqlashning ahamiyati. Qo‘riqxonalar, zakazniklar (buyurtmaxonalar), milliy bog‘lar, botanika bog‘lari hamda cheklangan boshqa hududlarning o‘simliklar genofondini saqlashdagi roli. “Qizil kitob”lar va o‘simliklar dunyosini muhofaza qilishda ularning ahamiyati. O‘simliklar genofondini saqlash, boyitish va ulardan oqilona foydalanishda aholi o‘rtasida olib boriladigan amaliy-ma’rifiy ishlarning asosiy shakllari.

### **Geobotanika fani bo‘yicha:**

Geobotanika fani – o‘simlik jamoalari, ularning gorizontal va vertikal strukturasi, ularning tashqi muhit sharoitlariga moslashish qonuniyatları, yer yuzida tarqalishi, o‘simlik jamoalarining shakllanishi, fitosenozdagi jarayonlar va

boshqa biologik va fitosenotik xususiyatlari bo'yicha yo'naliш profiliga mos bilim, ko'nikma va malakani mukammal o'rgatishdan iborat. *Fanning vazifasi* – fitosenozda o'simliklarni aniqlay olish usullarini, zamonaviy tadqiqot usullarini, morfobiologik va fenologik kuzatuv usullarini, tabiiy o'simlik resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish prinsiplarini amalda qo'llay olishni o'rgatishdan iborat.

## **ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. M.I. Ikromov, X.N. Normurodov, A.S. Yuldashev Botanika. – Т.: 2002.
2. S.M. Mustafoyev Botanika. – Т.: O‘zbekiston, 2002.
3. М.В Великанов , Л.Л Горибова , Л.В Горбунов, Н.П Горленко “Курс низших растений”. – М.: “Высшая школа”, 1981 йил.
4. Эленевский А.Г. Соловёва М.П. Тихомиров В.И. «Ботаника». «Высших или наземных растений». – Москва: Академа, 2000.
5. O‘R.Pratov, M.M.Nabiyev “O‘zbekiston yuksak o‘simgliklarning zamonaviy tizimi ”. – Toshkent, 2007.
6. A.Xamidov O‘simgliklar geografiyasi. – Т.: “O‘qituvchi”, 1984.
7. I.X.Hamdamov, P.Shukurullayev, E.Tarasova, Y.Qurbanov, A.Umurzoqov. «Botanika asoslari». – Т., 1990.
8. Прейвн П., Эверст П., Айхорн С. - Современная ботаника изд. «Мир». – Москва, 1990. – 347 с.
9. Tojiboyev Sh. O‘simgliklar geografiyasi. – Namangan: “Namangan”, 2015. – 160 b.
10. Тахтаджан А.Л. Флористические области земли. – Ленинград, 1978. – 248 с.
11. Baratov P. va b. O‘rta Osiyo tabiiy geografiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2002. – 147 b.
12. O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi”. – Toshkent: Chinor ENK, 2019. – 335 b.
13. N.M. Jukovskiy «Botanika». – Moscow, 1982.
14. Родман Л.С. Ботаника. “КОЛОС”. – Москва, 2001. – 328 с.
15. Л.И.Курсанов, Н.А.Каменский, К.И.Мейер, В.Ф.Раздровский, А.А.Уралов «Ботаника» 2 томлик. – Т., 1972.
16. Burigin V.A., Jonguzorov F.X. Botanika. – Toshkent: «O‘qituvchi», 1997. – 351 b.

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI**  
**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETINING TAYANCH**  
**DOKTORANTURA IXTISOSLIKLARIKA KIRISH SINOVLARI UCHUN**  
**MUTAXASSISLIK FANLARDAN TALABGORLARNING BILIMLARINI**  
**BAHOLASH MEZONI**

<b>Sinov topshirish shakli</b>	Yozma
<b>Ajratilgan vaqt</b>	120 daqiqa
<b>Savollar soni</b>	5
<b>Har bir savol uchun belgilangan ball</b>	20
<b>Eng yuqori ball</b>	100